

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish

Bosh ilmiy-metodik markazi

NIZOMI

Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-son qarori bilan tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazining (keyingi o‘rinlarda – Bosh ilmiy-metodik markaz deb ataladi) faoliyatini belgilaydi.

2. Bosh ilmiy-metodik markazning maqsadi – oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifatini takomillashtirish va monitoringini olib borish, ularni me’yoriy va metodik ta’minotini amalga oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlariga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishini tashkillashtirishdan iborat.

3. Bosh ilmiy-metodik markazning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

professor-o‘qituvchilar tarkibining kasbiy tayyorgarligi darajasi, ularning yuqori malakali kadrlarni tayyorlash talab qilinadigan darajasini ta’minlash bo‘yicha ish natijalari hamda ilg‘or xalqaro pedagogik tajribani o‘rganish asosida, zamonaviy metodikalardan foydalangan holda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv reja va dasturlari, o‘quv-metodik va me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

tegishli ta’lim fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari mazmunini takomillashtirishni, ta’limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashni ta’minlash maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo‘yicha mamlakatimizning ilg‘or zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalar bilan hamkorlik qilish hamda ulardan pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun bazaviy ob‘yektlar sifatida foydalanish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish;

malaka oshirishning ta’lim jarayoni sifati va natijalarini tizimli tahlil qilish, monitoringini olib borish, pedagoglarning zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta’lim sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalari va layoqatlari rivojlanishining o‘zgarishini baholab borish;

bazaviy oliy ta’lim muassasalari bilan birgalikda ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda chet tillari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘qitish bo‘yicha o‘quv-metodik materiallar tayyorlanishi va samarali metodikalar ishlab chiqilishini ta’minlash, mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha mintaqaviy va tarmoq markazlarida seminar-treninglar tashkil qilish;

pedagoglarni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, ilmiy eksperimentlar, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishning samarali metodlari bilan tanishtirish maqsadida ilmiy-tadqiqot muassasalari (Fanlar Akademiyasining ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy- tadqiqot institutlari, markazlari, laboratoriyalari va shu kabilar) bilan hamkorlik qilish, tegishli ta’lim fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari mazmunini takomillashtirish, ta’limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashni ta’minlash borasida iqtisodiyot sohasining ilg‘or zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan

jihozlangan korxonalaridan pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun bazaviy ob'yektlar sifatida foydalanish dasturlarini ishlab chiqish;

mintaqaviy va tarmoq markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, oliy ta'lim muassasalarining rahbar xodimlari (rektor, prorektor, dekan va bo'lim boshliqlari) malakasini oshirish kurslarini tashkil qilish va o'tkazish.

4. Bosh ilmiy-metodik markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qarorlari, O'zbekiston Respublikasining Prezidentining qaror, farmon va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining qaror va buyruqlari, shuningdek mazkur Nizomga amal qiladi.

5. Bosh ilmiy-metodik markaz yuridik shaxs hisoblanadi, o'z ustaviga, mustaqil balansiga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligida hisob raqamlariga ega bo'ladi.

I. Bosh ilmiy-metodik markazning faoliyat yo'nalishlari va o'quv jarayonini tashkil etish

6. Bosh ilmiy-metodik markaz o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda tashkil etadi:

oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlari, o'quv-metodik va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim jarayoni sifati va natijalarini tizimli tahlil qilish va monitoringini olib borish;

zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim tizimiga joriy etish, masofadan o'qitishni tashkil etishning dasturiy hamda metodik ta'minotni ishlab chiqish;

ilg'or xalqaro tajribani o'rganib borish, xorijiy davlatlarning yetakchi universitetlari va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshirish;

mintaqaviy va tarmoq markazlari yo'nalishlari bo'yicha o'quv reja va dasturlarining ekspertizasini tashkil etish;

mintaqaviy va tarmoq markazlarining pedagoglari malakasini oshirish;

oliy ta'lim muassasalarining rahbar xodimlari malakasini oshirish kurslarini tashkil qilish va o'tkazish;

pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning dolzarb ilmiy muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borish;

pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha respublika va xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalarini ommalashtirib borish.

7. Bosh ilmiy-metodik Markaz qoshida Ilmiy-metodik kengash tashkil etiladi. Kengash faoliyatini Bosh ilmiy-metodik Markaz direktori boshqaradi. Kengash tarkibiga Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining mutassadi rahbarlari va xodimlari, mintaqaviy va tarmoq markazlari

rahbarlari hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida boy tajribaga ega mutaxassislar kiritiladi.

8. Bosh ilmiy-metodik markaz mintaqaviy va tarmoq markazlarining faoliyati monitoringini olib boradi, zarur hollarda ularning hisobotlarini muhokama etadi. Bosh ilmiy-metodik markaz mintaqaviy va tarmoq markazlarining faoliyati bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishli ma'lumotnoma kiritish huquqiga ega.

9. Bosh ilmiy-metodik markaz mintaqaviy va tarmoq markazlari bilan birgalikda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha yagona elektron bazani shakllantiradi, ta'lim resurslarining yangi axborotlar bilan doimiy yangilanib borishini tashkil etadi, mintaqaviy va tarmoq markazlari faoliyatini muvofiqlashtirishga hamda monitoringni amalga oshirishga xizmat qiluvchi yagona elektron boshqaruv tizimini ishlab chiqadi va joriy qiladi.

10. O'quv mashg'ulotlarining ma'ruza, amaliy va seminar, ko'chma, tajriba almashish va boshqa shakllaridan foydalaniladi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari asosida masofaviy kurslar o'tkaziladi.

11. O'rnatilgan tartibda iqtisodiyot sohalari korxonalar va tashkilotlari xodimlari uchun pulli-shartnoma asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi mumkin.

12. Tinglovchilarning o'quv jarayoni asosiy ish faoliyatidan ajralgan holda quyidagi muddatlarda olib boriladi:

malaka oshirish – o'quv yuklamasi 144 soat hamda o'qish muddati 1 oy.

Zaruriyatdan kelib chiqib, maxsus dasturlar asosida bir yoki ikki haftalik maqsadli seminar-treninglar tashkil etilishi mumkin.

Tinglovchilarning asosiy ish faoliyatidan ajralmagan holdagi qayta tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv jarayoni muddatlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

13. O'rnatilgan tartibda iqtisodiyot sohalari korxonalar va tashkilotlari xodimlari uchun shartnoma asosida amalga oshiriladigan malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarining muddati tegishli shartnoma shartlari bilan belgilanadi.

14. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari uchun belgilangan vaqt me'yorlariga asosan Bosh ilmiy-metodik markazi professor-o'qituvchilarning yillik o'quv, metodik, ilmiy va boshqa turdagi yuklamalari hajmi aniqlanadi.

15. Bosh ilmiy-metodik markaz pedagoglari qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari sifatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy faoliyatni, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq qilish ishlarini amalga oshiradilar.

16. Bosh ilmiy-metodik markazga oliy ta'lim muassasalarining rahbar va rahbarlikka zahira kadrlari, mintaqaviy va tarmoq markazlarining pedagoglari tinglovchi sifatida qabul qilinadilar. Tinglovchilarni o'qitish oliy ta'lim muassasalari hamda mintaqaviy va tarmoq markazlarining buyurtmalari asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan yillik rejaga asosan amalga oshiriladi.

17. Tinglovchilarning xizmat safari bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlari o‘rnatilgan tartibda ularning asosiy ish joyilaridan qoplanadi.
18. Bosh ilmiy-metodik markaz mintaqaviy va tarmoq markazlari pedagog kadrlari uchun seminar-treninglar tashkil qiladi.
19. Bosh ilmiy-metodik markaz xodimlari va professor-o‘qituvchilari uchun “Iste’dod” jamg‘armasi, xalqaro ilmiy loyihalar va grantlar orqali xorijiy davlatlarning ilg‘or universitetlarida qisqa muddatli malaka oshirishlari tashkil etiladi.
20. Bosh ilmiy-metodik markazda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-metodik jurnal faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.
21. Bosh ilmiy-metodik markaz O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan hamkorlikda mintaqaviy va tarmoq markazlarida ta’lim sifatini monitoringini olib boradi, mintaqaviy va tarmoq markazlari pedagog kadrlarining malaka darajasini tahlil qiladi va baholaydi.

II. Bosh ilmiy-metodik markazning moliyalashtirilishi va moddiy-texnik ta’minoti

22. Bosh ilmiy-metodik markaz faoliyatini moliyalashtirish manbalari quyidagilar:

oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun davlat byudjetidan yillik parametrlari doirasida ajratilgan mablag‘lar;

shartnoma asosida o‘qitishdan tushgan mablag‘lar;

yuridik va jismoniy shaxslarning o‘z xohishiga ko‘ra qilgan hadyalari va maqsadli badallari;

qonunchilikda ta’qiqlanmagan boshqa manbalar.

23. Bosh ilmiy-metodik markaz zarur hollarda tegishli oliy ta’lim muassasasi bazasidan, shuningdek, boshqa soha korxonasi va tashkilotlarining moddiy-texnik bazasidan kelishuv asosida foydalanishi mumkin.

III. Bosh ilmiy-metodik markazning tinglovchilariga hujjat berish

24. Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta’lim dasturlari talablarini muvaffaqiyatli bajargan tinglovchilarga tegishli ravishda quyidagi hujjatlar beriladi:

malaka oshirganligi to‘g‘risidagi guvohnoma;

qayta tayyorlash to‘g‘risidagi sertifikat.

26. Sertifikat va guvohnomalarni o‘rnatilgan tartibda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligidan qabul qilish, saqlash va tarqatishga mas’ul shaxs Bosh ilmiy-metodik markaz direktorining buyrug‘i asosida tayinlanadi.

V. Xalqaro hamkorlik

27. Bosh ilmiy-metodik markazning xalqaro hamkorligi amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Markaz xorijiy mamlakatlarda qayta tayyorlash va malaka oshirish sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va ularning ijobiy tomonlarini ommalashtirish maqsadida o'zining xodimlari va pedagog kadrlarini chet elda tajriba almashishini tashkil etadi.

28. Bosh ilmiy-metodik markaz xorijiy davlatlar jamg'armalari yoki universitetlari bilan hamkorlikda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo'nalishlarida ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi va joriy etishi mumkin.

VI. Yakuniy qoidalar

29. Mazkur Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlari asosida hal etiladi.

30. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi, "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aktsiyadorlik temir yo'l kompaniyasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan.